

**RADIKULIT KASALLIGI SABABLARI, BELGILARI,
DAVOSI VA OLDINI OLISH CHORALARI**

Umurzakova Mohistara Ilhomjon qizi
Farg‘ona shahar Sino tibbiyot texnikumi
“Maxsus fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Radikulit kasalligi sabablari, belgilari, davosi va oldini olish choralari haqida aytib o‘tilgan va tavsiyalar berilgan .

Kalit so‘zlar:nerv ildizlari, Umurtqalararo disk churrasi, Skolioz, Osteoartrit, Fizioterapiya, miorelaksant.

**CAUSES, SYMPTOMS, TREATMENT AND
PREVENTION OF RADICULITIS**

Annotation: This article discusses the causes, symptoms, treatment and prevention of radiculitis and provides recommendations.

Keywords: nerve roots, herniated disc, scoliosis, osteoarthritis, physiotherapy, muscle relaxant.

Radikulit – bu orqa miya nerv ildizlarining yallig‘lanishi yoki zararlanishi bo‘lib, bel, bo‘yin va qo‘llarda kuchli og‘riq, shuningdek, sezgi buzilishi, mushak kuchsizligi va noqulayliklar (masalan, boshni majburan bir tomonga engashtirish) bilan tavsiflanadi, ko‘pincha disk churrasi, osteoxondroz yoki travma natijasida kelib chiqadi.



Sabablari


Asab ildizlarining siqilishiga olib keladigan kasallik va buzilishlar:

- Umurtqalararo disk churrasi. Bu eng keng tarqalgan sabab. Churra jismoniy zo'riqish, jarohat yoki ortiqcha vazn tufayli paydo bo'lishi mumkin.
- Skolioz. Noto'g'ri qomatda orqa miya asab tolalari siqilishi mumkin;
- Umurtqalararo diskdagi degenerativ o'zgarishlar (masalan, qarish bilan bog'liq);
- Orqa miyaning kompression sinishi;
- Umurtqa stenoz. Bu orqa miya kanalining torayishi bilan ifodalanadi;
- Suyak shporalari.
- Orqa miya o'smalari;
- Osteoartrit yoki umurtqa artriti;
- Umurtqa boylamlarning qalinlashishi (ossifikatsiyasi);
- Qandli diabet. Bunday holda, yallig'lanish asab tolalariga qon yetmasligi sababli sodir bo'ladi.

Tashxislash

Radikulitning eng aniq belgisi — bu orqadagi o'tkir va keskin og'riq sanaladi. Kasallik alomatlari shikastlangan asab umurtqaning qaysi qismida joylashganligiga qarab farq qilishi mumkin.

• Bo'yin radikulopatiyasi yelkada, orqaning yuqori qismi yoki qo'llardagi og'riqlar bilan namoyon bo'ladi. Doimiy zaiflik, uvishishlar, qo'l barmoqlari uchlarida sanchishlar, shuningdek, boshni yoki bo'yinni egganda og'riqning kuchayishi ham ushbu sohada radikulit paydo bo'lganining alomatlari bo'lishi mumkin;



- Ko'krak radikulopatiyasi kam uchraydi. Uning alomatlari har qanday qovurg'ada, yon yoki qorindagi sanchuvchi yoki yonuvchi og'riqlar, uvishish, sanchishlar orqali ifodalanadi. Ushbu holatni o'rab oluvchi lishay, yurak, o't pufagi va qorin bo'shlig'ining boshqa a'zolari tomonidan kelib chiqadigan asoratlar bilan osonlikcha adashtirib yuborish mumkin;

- Bel radikulopatiyasi patologiyaning eng keng tarqalgan turi sanaladi. U o'zi haqida belning pastki qismidagi otuvchi og'riq, orqaning pastki qismlari, son, dumba yoki to'piqdagi uvishish va og'riq orqali xabar beradi. Alomatlar odatda uzoq vaqt o'tirish yoki yurishdan so'ng kuchayadi.

Dumg'aza va dum qism radikuliti juda kam kuzatiladi va klinik tasviri bo'yicha belda kuzatiladigan alomatlarga o'xshaydi.

Radikulitni davolash

Kasallik kuzatilganda dastlab terapevt shifokorga murojaat etish kerak. U orqa va oyoq-qo'llardagi og'riqlar haqidagi shikoyatlarni tinglab, lozim bo'lsa, tor doira mutaxassisini tavsiya qiladi.

Ko'pincha tashxis qo'yish uchun alomatlarining tavsifi va jismoniy ko'rik yetarli bo'ladi. Ammo ba'zida rentgen va elektromiografiya (asab tolalari signallarni qanday o'tkazishini aniqlaydigan test) talab etilishi mumkin.

Shifokor davolash usulini kasallikni keltirib chiqargan omilga qarab tanlaydi. Skolioz, o'smalar va diabet tufayli yuzaga kelgan radikulitni davolashda qo'llaniladigan muolajalar turli xil bo'lishi mantiqan aniq. Ba'zi hollarda (masalan, suyak shporalarida) jarrohlik aralashuvi talab etiladi.

Ammo umumiy tavsiyalar ham mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

- Og'riqni kamaytirish uchun og'riq qoldiruvchi yoki miorelaksant vositalari, antikonvulsantlar tayinlanadi;
- Vaznni kamaytirish. Shifokor ortiqcha vazndan xalos bo'lishga yordam beradigan parhez yoki jismoniy mashqlarni tavsiya qilishi mumkin;
- Fizioterapiya mashqlari. Uning asosiy maqsadi mushaklarni kuchaytirish va umurtqa pog'onasiga ortiqcha yuk tushishini oldini olishdir.

Kasallikni xalq tabobati yordamida davolash faqat org'riqni yengillashtirish bilan cheklanadi. Mustaqil ravishda issiq qo'yish yoki og'riq qoldiruvchi vositalarni qabul qilish tavsiya etilmaydi. Sababi bunday klinik tasvir issiq qo'yish qat'iyan man etilgan kasalliklarda ham kuzatilishi mumkin.

Oldini olish

Radikulitning oldini olish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- qomatini to'g'ri tutishi;
- bel mushaklarini mustahkamlash uchun mashqlar bajarish;
- bir holatda uzoq vaqt turishning oldini olish;
- o'ta sovqotishdan saqlanish;
- yuqumli kasalliklarni o'z vaqtida davolash;

- umurtqa pog‘onasiga tushadigan yuklamalarni nazorat qilish;
- immun sistemani mustahkamlamoq

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.M.Majidov, B.G.Gafurov, Yo.N.Majidova Hususiy nevrologiya
2. Zarifboy Ibodullayev: Umumiy Nevrologiya
3. Internet saytlari:
<https://uz.wikipedia.org/wiki/>
<https://med360.uz/kasalliklar/>
<https://aylim-kutubxona.uz/storage/books/>